

XORAZM SHEVALARINING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI: AN'ANAVIYLIK VA YANGILIKLAR ZAMINIDA

Babadjanov Mansurbek Kurbanbayevich

QQDU O'zbek tilshunosligi kafedrasи

dotsenti, f. f. f. d. (PhD)

Rahimova Nuginabonу

Qoraqolpoq davlat universitetи

1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazm shevalarining leksik-semantik xususiyatlari tahlil qilinadi. Sheva nutqidagi so'z boyligi, ularning ma'no qatlamlari, konnotativ-denotativ ma'nolari, mahalliy dialektga xos bo'lgan frazeologizmlar ko'rib chiqiladi. Xorazm shevalaridagi semantik o'ziga xosliklar, ko'p ma'nolilik (polisemiya), leksik-semantik guruuhlar alohida tahlil qilinadi. Shuningdek, Xorazm shevalari va adabiy til o'rtasidagi leksik-semantik farqlar, ularning tarixiy, ijtimoiy va madaniy omillar ta'sirida shakllanishi ham yoritiladi.

Kalit so'zlar: Xorazm shevalari, leksik-semantik xususiyatlar, dialektologiya, sheva leksikasi, ko'p ma'nolilik, ftozeolagizmlar, semantik guruuhlar, adabiy til, mintaqaviy farqlar.

O'zbek tili tarkibida mavjud bo'lgan shevalar — tilning tarixiy rivojlanish bosqichlarini, mintaqaviy tafovutlarini, xalq og'zaki ijodi va ijtimoiy-madaniy hayotining tilga aks etishini chuqur o'rganish imkonini beruvchi muhim manbadir. Shevalar tilda arxaik qatlamlar, yangi paydo bo'lgan birliklar, mahalliy ifodalar, xalqona uslublar va o'ziga xos leksik-semantik tizimlarni o'zida mujassam etadi. Xorazm shevalarining o'ziga xosligi, ularning o'zbek adabiy tilining rivojlanishidagi o'rni va ahamiyati yoritilishi ko'zda tutiladi.

Tilshunos olim V.V.Reshetov o'zbek shevalarining tarixiy-lingvistik xususiyatlarini va ayrim dialektlarga qo'shni tillar-tojik,qozoq, qoraqalpoq, turkman tillari munosabatini hisobga olgan holda o'zbek shevalarining tasnifini yaratdi. Unga ko'ra o'zbek tili uch turkiy komponentning birikishi natijasida vujudga kelgan:

- 1) qarluq-chigil-uyg'ur lahjasи hozirgi qardosh uyg'ur tiliga yaqin bo'lib, tojik tili bilan yaqin etno-lingvistik munosabatda bo'lган;
- 2) qipchoq lahjasи qardosh qozoq va qoraqalpoq tillari bilan yaqin;
- 3) o'g'uz lahjasи qardosh turkman tili bilan yaqin.¹

¹ D.T.Berdiyeva "QORAKO'L SHEVALARINING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI"

Xorazm shevalari ba'zi xususiyatlari bilan adabiy tildan ancha farq qiladi. O'zbekistonning qadimiy vohalaridan biri bo'lgan Xorazm hududida shakllangan shevalar o'zining boy leksik zaxirasi, semantik rang-barangligi va qadimiy unsurlarning saqlanib qolganligi bilan ajralib turadi. Shevaning tarixiy ildizlari, madaniy-mintaqaviy tafakkur bilan bog'liqligi, boshqa turkiy tillar — xususan, qadimgi og'uz va qipchoq tillari bilan uzviy aloqadorlikda bo'lishi Xorazm tiliga o'ziga xos komplekslik baxsh etadi. Bu esa uni o'zbek tilining boshqa lahjalari orasida noyob holatga olib chiqadi. Xorazm shevalari hozirgi turk adabiy tiliga juda yaqin. Masalan:

Gal- adabiy tilimizdagi "kelmoq" fe'lining Xorazm shevasidagi varianti;

Gul-adabiy tilimizdagi "kulmoq" so'zining Xorazm shevasidagi aytilishi;

Do'nmak- "orqaga qaytmoq" ma'nosida;

Ushimak- "sovuuq qotish"ma'nsida.

Bundan tashqari Xorazm shevasida o'zbek adabiy tilidan ancha farq qiladigan so'zlar juda ko'p. Masalan, angak -chakak, gechchi- echki kabu so'zlar ham shular jumlasidandir.

Shuningdek, Xorazm shevalari geografik omillarga ko'ra ham ichki guruhlarga ajraladi. Masalan, Urganch, Xiva, Gurlan, Shovot, Qo'shko'pir, Bog'ot kabi tumanlarda so'z boyligi, talaffuz va ba'zi grammatik birliklar orasida sezilarli tafovutlar mavjud. Bu holat Xorazm shevalarining ichki tafakkur modeliga va ijtimoiy til me'yorlariga moslashgan holda shakllanganligidan dalolat beradi.

Xorazm vohasida shakllangan shevalar tarixan o'z mustaqilligini saqlagan bo'lib, ular qadimgi turkiy tillarning ko'plab arxaik unsurlarini saqlab qolgan. Bularga quyidagilarni misol keltira olamiz:

- **Durkat-qaychi.** Yupqa narsalarni, mato, qog'oz va shu kabilarnikesish uchun ishlatiladigan, o'rta yeridan bir-biriga vint bilan biriktirilgan ikki tig`dan iborat dastali asbob. (Bar, äppiyiňän mäni durkatümni äkkäl).
- **Susaq-cho'mich.** Suyuq ovqatni shopirish va suzish uchun ishlatiladigan, uzun dastali ro'zg'or asbobi.(Şorvanï kop salma, biy susaqdan sal, yetmin otrmasin.²

Sheva o'zbek tili dialektologiyasining muhim bo'g'inlaridan biri bo'lib, bu shevalarning tahlili orqali xalq tili tafakkuri, tarixiy-madaniy jarayonlar va til taraqqiyoti haqida muhim xulosalar chiqarish mumkin. Xususan, Xorazm shevasida saqlanib qolgan arxaizmlar, yangidan kirib kelgan neologizmlar, ko'p ma'nolilik, sinonimiya va antonimiya hodisalari, semantik almashinuvlar kabi leksik-semantik xususiyatlар tilshunoslik nuqtayi nazaridan katta ilmiy ahamiyatga egadir. Shevaning leksik-semantik xususiyati – bu shevaga xos bo'lgan so'zlar tizimi (leksikasi) va

² S. Allambergenova. "XORAZM SHEVALARI LEKSIKASIDAGI ARXAIZMLARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLAR"
ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ:2025

ularning ma’nosи (semantikasi)ni o’rganishdir. Ular adabiy til bilan solishtirilganda o‘ziga xos fonetik, ma’no va qo’llanilish jihatlariga ega bo‘lishi mumkin.

Xorazm shevalari o‘zbek tili lahjalar tizimida shimoliy-g‘arbiy guruhgа mansub bo‘lib, ular tilshunoslikda qadimiylig va mustaqil rivojlanish jihatidan alohida o‘rganishga arzigulik hududiy shevalardan hisoblanadi. Bu shevalar nafaqat fonetik va morfologik jihatdan, balki leksik va semantik qatlamlarida ham o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Ayniqsa, Xorazmning tarixiy yodgorliklar, qadimiyl yozma manbalar va boy og‘zaki ijod namunalari bilan chambarchas bog‘liq tili xalq tilining boy merosini aks ettiradi. Xorazm shevasi fonetikasi, tovushlar talaffuzi adabiy tildan tubdan farq qiladi. Xorazm qipchoq shevalari unlilar soni jihatdan adabiy tilga asos bo‘lgan shevalardan farq qiladi. YA’ni ularda 6 unli tovush, Xorazm shevalarida 9 unli tovush: i, ы, е (e), и, ў, о, ё, а, ә.

Xorazm shevalarini o’rgangan tadqiqotchilar [i, ы] fonemalarini til oldi, til orqa, shuningdek, til o‘rta variantlari ham borligini qayd etadilar (Abdullaev, 1960:15). Darhaqiqat, shevada ushbu unlining bir qadar orqa qatorga intiluvchi varianti mavjud. Qiyos qiling: inachi, iyt (it), iyər (egar), saylı (izzatli) va Fonetik xususiyatlар. Xorazm qipchoq shevalari unlilar soni jihatdan adabiy tilga asos bo‘lgan shevalardan farq qiladi. YA’ni ularda 6 unli tovush, Xorazm shevalarida 9 unli tovush: i, ы, е (e), и, ў, о, ё, а, ә.³

Xorazm shevasidagi leksik birliklar tarkibiga kiruvchi iboralarning leksik-semantik tahliga to’xtalish jarayonida shevaga oid bo‘lgan frazeologizmlarning sinonimlarini izohlab o’tamiz. Masalan: ushbu sheva og‘zaki nutqida juda charchamoq ma’nosini bildiruvchi «Og’zini suvi oqdi» iborasi mavjud bo‘lib, bu ibora o‘zbek adabiy tilidagi “Holdan toymoq” iborasiga teng keladi. Shuningdek, ushbu iboraning shu sheva tilida „Oyoqinnan o’t chiqdi” sinonim iborasi ham uchrab turadi. Bu iboraning birinchi iboradan deyarli farqi yo’q. Masalan: To’y o’yda ish atavarip, oyoqimnon o’t chiqdi yoki, buni o’rniga og‘zimni suvi oqdi birikmasini ham qo’llash mumkin. “Qo’yloni qumo yuvardi” iborasi “Parvoyi palak” iboralari bilan sinonim bo‘lib, u beparvo, beg’am degan ma’nolarni bildiradi. Xorazm shevasidagi mazkur iboraning o‘zbek adabiy tilidagi muqobili “Parvoyi falak”, “Dunyonи suv bossa, to’pig’iga chiqmaydi” iborasi bilan bir ma’noni anglatadi. sinonimlari mavjud.⁴

Xorazm shevalarining leksik-semantik xususiyatlari ularning o‘ziga xosligi, tarixiy ildizlari va ijtimoiy-madaniy hayot bilan bevosita bog‘liqligini ko‘rsatadi. Mazkur shevalarda adabiy tilga nisbatan farq qiluvchi so‘zlar, iboralar, ma’no o‘zgarishlari, qadimiylig qoldiqlari va mintaqaviy nutq o‘ziga xosliklari kuzatiladi. Bu xususiyatlар

³ Sh. Alimova "Xorazm qipchoq shevalarining o‘ziga xos xususiyatlari" (UIUSLARARASI TÜRKBİLİM ÖĞRENCİ KÜRÜLTAYI) Nur-Sultan: 2021-y

⁴ M.I.Shumuratova "XORAZM O’G’UZ SHEVALARIDA FRAZEOLOGIK SINONIMLARNING QO’LLANILISH"

orqali Xorazm shevalari nafaqat muloqot vositasi, balki xalq og‘zaki ijodining, urfatlarining va tarixiy til taraqqiyotining aksidir. Shevaga xos leksik birliklar va ularning semantik jihatdan tahlili mahalliy nutqning boyligini, ifoda vositalarining rang-barangligini oshib beradi. Shu jihatdan, Xorazm shevalarini leksik-semantik o‘rganish nafaqat dialektologiya, balki umumtilshunoslik va madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan ham muhim ilmiy ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. S. Allambergenova. "Xorazm shevalari leksikasidagi arxaizmlarning leksik-semantik xususiyatlar" ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ:2025
2. D.T. Berdiyeva "Qorako'l shevalarining leksik-semantik xususiyatlarish". Alimova "Xorazm qipchoq shevalarining o'ziga xos xususiyatlari" (UIUSLARARASI TÜRKBİLİM ÖĞRENCİ KÜRÜLTAYI) Nur-Sultan: 2021-y
3. Sh. Alimova "Xorazm qipchoq shevalarining o'ziga xos xususiyatlari" (UIUSLARARASI TÜRKBİLİM ÖĞRENCİ KÜRÜLTAYI) Nur-Sultan: 2021-y
4. M.I.Shamuratova "Xorazm o'g'uz shevalarida frazeologik sinonimlarning qo'llanilish"